



20. Sonlarni qo'shish (25 + 6)

Yondosh mavzu:
Transport

Xonadan o'tib qo'shish.



Qanday joylashtirish kerak?



1. Ifoda tuzing va uni grafik ko'rinishda yeching.
Jasur sentabr oyida 7 marta metroda va 28 marta avtobusda yurdi. Jasur sentabr oyida jami necha marotaba transportda yurgan?

2. Misollarni namuna bo'yicha yeching.


Namuna:

$$25 + 6 = (25 + 5) + 1 = 30 + 1 = 31$$



$38 + 5$	$45 + 7$
$27 + 4$	$56 + 9$
$42 + 9$	$76 + 5$
$36 + 6$	$83 + 8$

3. Chizma bo'yicha masala o'ylab toping.
Uning yechimini yozing.




4. Avtobusda 27 nafar yo'lovchi ketayotgan edi. Bekatda 3 nafar yo'lovchi tushdi, 8 yo'lovchi avtobusga chiqdi. Avtobusda necha nafar yo'lovchi bor?



5. Yo'nalishlarni rejalashtiradigan sohaning nomini toping.

K	$30 - 2$	I	$48 + 5$
A	$60 - 1$	O	$59 + 6$
S	$9 + 45$	G	$45 + 7$
L	$38 + 7$	T	$90 - 4$



6. Tomonlari 9 cm va 5 cm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak perimetrini toping.

Shu to'g'ri to'rtburchakni daftaringizga chizing.



7. O'tgan yili 29 ta elektr batareyali avtomobil sotilgan.

Bu yil undan 9 ta ko'p avtomobil sotildi. Shu ikki yilda jami nechta elektr avtomobil sotildi?



8. Misollarni yeching va ularga teskari misollar tuzing.

$19 + 6$

$27 + 9$

$8 + 44$

$8 + 73$

$74 + 6$

$85 + 5$

$40 - 17$

$30 - 4$

$27 - 12$

$80 - 26$

$60 - 5$

$65 - 41$



9. Birinchi ko'chaga 34 ta kuzatuv kamerasi o'rnatilgan.

Ikkinchisiga undan 7 ta ko'p kamera o'rnatildi.

Ko'chalarga jami nechta kamera o'rnatilgan?